**Abstract:** This article examines the psychological conditions for developing creativity in university students during professional training. The study analyzes the theoretical foundations of creativity, internal and external psychological factors affecting its development, the psychological characteristics of the educational environment, as well as the impact of teacher-student relationships on creative activity. Based on an experiment using the Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT), developed by Ellis Paul Torrance, the findings indicate that a psychologically safe environment, professional motivation, and a supportive teacher position collectively enhance student creativity. The final scores of the experimental group exceeded those of the control group by an average of 22 points, confirming the practical effectiveness of the proposed psychological conditions.

**Key words:** creativity, professional training, psychological conditions, educational environment, intrinsic motivation, Torrance test, psychological safety, creative thinking, higher education.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению психологических условий развития креативности у студентов в процессе профессиональной подготовки в высших учебных заведениях. В исследовании анализируются теоретические основы креативности, внутренние и внешние психологические факторы, влияющие на её развитие, психологические характеристики образовательной среды, а также влияние взаимоотношений преподавателя и студента на творческую активность. По результатам эксперимента с использованием Теста творческого мышления Эллис Пол Торранс (ТТСТ) установлено, что психологически безопасная среда, профессиональная мотивация и поддерживающая позиция преподавателя в совокупности существенно повышают креативность студентов. Итоговые показатели экспериментальной группы превысили показатели контрольной группы в среднем на 22 балла, что подтверждает практическую эффективность предложенных психологических условий.

**Ключевые слова:** креативность, профессиональная подготовка, психологические условия, образовательная среда, внутренняя мотивация, тест Торранса, психологическая безопасность, творческое мышление, высшее образование.

### KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologik o'zgarishlar jadal sur'atda kechayotgan sharoitida jamiyatning mutaxassislariga bo'lgan talablari tubdan o'zgarimoqda. Endi muammolarni mavjud qoliplar doirasida hal etishdan ko'ra, yangi yechimlar topish, tizimli fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatiga ega bo'lish muhimroq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativlik - shaxsning ijodiy salohiyati va ijtimoiy-kasbiy hayotda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda.



O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ijodkor, kreativ va mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyalash davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari, xususan kasbiy tayyorgarlik jarayoni, alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu bosqichda shaxsning kasbiy dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va muammolarni hal etish ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, ta'lim amaliyotida kreativlikni rivojlantirish ko'pincha intuitiv tarzda, aniq psixologik asossiz amalga oshirilmoqda. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy o'qitish metodlari hukmronligi saqlanib, talabalarining erkin ijodiy fikr yuritishi va yangilikka intilishi uchun zarur psixologik muhit yaratilmayapti. Natijada talabalar kasbiy bilimlarni egallasa-da, ularning kreativ salohiyati yetarli darajada rivojlanmay qolmoqda.

Psixologiya fanida kreativlik muammosi ko'p asrlar davomida turli nuqtai nazarlardan o'rganib kelingan. J.Gilford, E.Torrans, T.Amabile, A.Maslou, K.Rojers kabi g'arb olimlari hamda D.B.Bogoyavlenskaya, V.N.Drujinin, A.M.Matyushkin singari rus psixologlari kreativlikning tabiatini, tuzilishini va rivojlanish shartlarini o'rganishga ulkan hissa qo'shgan.

O'zbek psixologiya fanida esa E.G'oziyev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov kabi olimlar ta'lim psixologiyasi sohasida salmoqli tadqiqotlar olib borgan. Biroq kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik shartlarni eksperimental tekshirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar hali ham yetarli emas - bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi** - kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda kreativlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik shartlarni aniqlash, ularni nazariy jihatdan asoslash va eksperimental tekshirishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti** - oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ faoliyati.

**Tadqiqot predmeti** - kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik shartlari.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik psixologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlar XX asrning o'rtalarida keskin rivojlana boshladi. Bu sohaning kashshofi hisoblanadigan amerikalik psixolog J.Gilford kreativlikni divergent fikrlash qobiliyati sifatida ta'riflab, uni an'anaviy intellekt testlaridan tubdan farqli hodisa ekanligini ilmiy asosda isbotladi. U kreativlikning to'rtta asosiy ko'rsatkichini aniqladi:

- fikrning ravonligi - qisqa vaqtda ko'plab g'oyalar yaratish qobiliyati;
- fikrning egiluvchanligi - turli toifadagi yechimlarni topish imkoniyati;
- o'ziga xoslik - noodatiy, noan'anaviy g'oyalar yaratish;
- batafsilligi- g'oyani rivojlantirib, tafsilotlashtirib borish qobiliyati.

E.Torrans kreativlikni yanada kengroq tushuncha sifatida ko'rib, uni muammoni sezish, bo'shliqlar va kamchiliklarni aniqlash, gipotezalar ilgari surish va ularni tekshirish, natijalarni umumlashtirish hamda boshqalarga yetkazish qobiliyati deb ta'riflagan. Uning Kreativ Fikrlash Testi (TTCT) bugungi kunda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatida qo'llaniladigan eng ishonchli va keng tarqalgan kreativlik diagnostikasi vositasi hisoblanadi. Torrans kreativlikning faqat kognitiv emas, balki motivatsion va hissiy jihatlarini ham hisobga olgan holda uni o'rganish zarurligini ta'kidlagan.

Rus psixologiyasida D.B.Bogoyavlenskaya kreativlikni "situativ bo'lmagan faollik" (надситуативная активность) deb ta'riflab, uni shaxsning chuqur ichki xususiyati - hayotni ma'noli qilish va o'z imkoniyatlarini cheksiz oshirib borish istagi bilan bog'lagan. Uning tadqiqotlari kreativlikni tashqaridan o'rgatib bo'lmagligini, uni faqat qulay psixologik sharoit orqali uyg'otish va rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. V.N.Drujinin esa kreativlik va intellektning o'zaro munosabatini o'rganib, IQ darajasi ma'lum bir chegaradan (taxminan 120) yuqori bo'lganda kreativlikning intellektdan mustaqil ravishda rivojlana olishini eksperimental isbotlagan.

Amerika psixologi T.Amabile kreativlikni uch omil kesishmasida joylashgan hodisa sifatida talqin etadi: soha bo'yicha bilim va ko'nikmalar, kreativ fikrlash ko'nikmalari va ichki motivatsiya. Amabile o'z tadqiqotlarida aynan ichki (intrinsic) motivatsiyaning - shaxsning faoliyatdan qoniqish olishi, qiziqish va zavq his qilishining - kreativlikka ta'sirini boshqa omillardan ustun deb ko'rsatdi. Shu bilan birga, u tashqi rag'batlantirish va nazoratning kreativ faollikni sezilarli darajada pasaytirishini "motivatsion to'siq" tushunchasi orqali izohladi.

Gumanistik psixologiyaning yirik vakili A.Maslou o'z-o'zini namoyon etish nazariyasida kreativlikni insondagi eng yuqori ehtiyoj sifatida ko'rsatdi. Uning fikricha, kreativ faollik faqat asosiy ehtiyojlar qondirilgan va shaxs psixologik jihatdan xavfsiz his qilgan sharoitda yuzaga chiqadi. K.Rojers esa shaxsga yo'naltirilgan terapiya nazariyasi doirasida kreativlikning ikki asosiy sharti sifatida psixologik xavfsizlik va psixologik erkinlikni belgiladi. Psixologik xavfsizlik deganda u shaxsning tashqi baholash, tanqid va rad etilishdan qo'rqmasdan o'zini erkin ifoda eta olishini tushungan.

Kreativlikni ta'lim muhitida rivojlantirish masalasi bilan shug'ullangan K.Robinsonning mashhur tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim tizimi ko'pincha kreativlikni rivojlantirish o'rniga uni "o'ldiradi" - bola maktabga o'ta ijodiy holda kelib, an'anaviy ta'lim jarayonida bu qobiliyatini yo'qota boradi. Ushbu muammo oliy ta'limda ham yaqqol kuzatiladi.

O'zbek psixologiya fanida E.G'oziyev shaxs psixologiyasi va kognitiv jarayonlar bo'yicha, M.G.Davletshin o'qituvchi psixologiyasi bo'yicha, B.R.Qodirov esa ijodiy fikrlashni rivojlantirish sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olimlarning ishlari O'zbek ta'lim tizimining o'ziga xos sharoitida kreativlikni rivojlantirishning milliy xususiyatlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Shunday bo'lsa-da, mazkur sohadagi eksperimental tadqiqotlar hali ko'p jihatdan to'ldirilishini kutmoqda.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkin: kreativlik murakkab, ko'p qirrali psixologik hodisa bo'lib, uning rivojlanishi faqat shaxsning ichki xususiyatlariga bog'liq emas. Ijtimoiy muhit, o'quv jarayonining tashkil etilish shakli, o'qituvchi-talaba munosabati va kasbiy motivatsiya ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omillarning birligi kreativlikni rivojlantirishning psixologik shartlarini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2023-2024-yillar mobaynida Toshkent davlat pedagogika universitetida amalga oshirildi. Ishtirokchilar sifatida psixologiya, pedagogika va tabiiy fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan 2-4-kurs talabalari tanlandi. Jami 180 nafar talaba tadqiqotga jalb etildi: ulardan 90 nafari eksperimental guruhni, 90 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Eksperimental va nazorat guruhlarini tenglashtirish printsipli asosida shakllantirildi - ikki guruh o'rtasida yosh, jins, o'quv o'zlashtiruvchi va dastlabki kreativlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik farq mavjud emasligiga erishildi.

### Asosiy diagnostik vosita: E.Torransning Kreativ Fikrlash Testi (TTCT)

Tadqiqotda yagona asosiy diagnostik vosita sifatida E.Torransning Kreativ Fikrlash Testi - TTCT (Torrance Tests of Creative Thinking) ning figural shakli, A varianti qo'llanildi. Ushbu tanlov bir necha ilmiy asosga tayanadi.

*Birinchi*dan, TTCT dunyo psixologiyasida eng ko'p sinovdan o'tgan va ishonchligi isbotlangan kreativlik diagnostika vositasi hisoblanadi. 1966-yilda E.Torrans tomonidan ishlab chiqilgan ushbu test hozirga qadar 50 dan ortiq mamlakatda keng qo'llaniladi va uning psixometrik ko'rsatkichlari ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.

*Ikkinchi*dan, TTCT figural shakli til bilimiga bog'liq emasligi tufayli turli yo'nalish talabalari uchun bir xil sharoitni ta'minlaydi.

*Uchinchi*dan, test kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun o'ta sezgir vosita ekanligi empirik tadqiqotlarda ko'rsatilgan.

TTCT figural shakli uchta komponentni o'lchaydi:

- ravonlik - berilgan rasmlarni tugatish orqali iloji boricha ko'p g'oya hosil qilish qobiliyati (maksimal 60 ball);
- egiluvchanlik- turli toifadagi g'oyalar yaratish imkoniyati (maksimal 40 ball);
- o'ziga xoslik - g'oyalarning noodatiy, noan'anaviy xarakteri (maksimal 40 ball).

Umumiy maksimal ball - 140.

Test o'tkazish tartibi: har bir talabaga 30 daqiqa vaqt beriladi, jamoaviy muloqot taqiqlanadi, natijalar maxsus kalit bo'yicha ikki mustaqil ekspert tomonidan baholanadi (ekspertlararo moslik koeffitsienti  $r=0.91$ ).

### Eksperimental ta'sir dasturi

Eksperimental guruh 16 hafta (bir semestr) davomida maxsus psixologik-pedagogik dastur asosida ish olib bordi. Dastur uch asosiy psixologik shartni amalda joriy etishga qaratildi.

#### *Birinchi shart* - psixologik xavfsizlik muhitini yaratish:

- o'quv guruhida xatolar uchun jazolanish bekor qilindi;
- barcha g'oyalar, hatto noodatiy va tuyulishicha "noto'g'ri" bo'lganlar ham qabul qilindi;
- anonim g'oyalar qutisi joriy etildi;
- dars boshida guruh normalari (qoidalari) birgalikda belgilandi va muntazam eslatib turildi.



#### *Ikkinchi shart - ichki motivatsiyani shakllantirish:*

- mashg'ulotlar real hayotiy muammolar va kasbiy vaziyatlar asosida qurildi;
- talabalar o'z qiziqishlariga mos loyihalar tanlash imkoniga ega bo'ldi;
- baholashda jarayon (urinish, izlanish) yakuniy natijadan muhimroq hisoblandi.

#### *Uchinchi shart - o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi:*

- o'qituvchilar uchun semestr boshida "Psixologik xavfsizlik muhiti" mavzusida maxsus trening o'tkazildi;
- darsda talabalarning mustaqil fikrlariga hurmat ko'rsatish va konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berish ko'nikmalari mustahkamlandi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish jarayoni davom ettirildi - hech qanday qo'shimcha psixologik ta'sir o'tkazilmadi.

TTCT testi ikki marta qo'llanildi: semestr boshida (pretest - boshlang'ich holat) va semestr oxirida (posttest - yakuniy holat). Shu yo'l bilan har ikki guruh uchun ham rivojlanish dinamikasi va guruhlararo farq aniq raqamlar asosida aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida kreativlikni rivojlantirishning uchta asosiy psixologik sharti - psixologik xavfsizlik muhiti, ichki motivatsiya va o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi - amalda joriy etilganda talabalar kreativligiga ta'siri kuzatildi va o'lchandi.

#### **Psixologik xavfsizlik muhitining ahamiyati**

Eksperimental dastur amalga oshirilgan guruhda psixologik xavfsizlik muhitining joriy etilishi darsning umumiy xarakterini tubdan o'zgartirdi. Talabalar avvalgi "to'g'ri javob topish" uchun musobaqa muhitidan xoli bo'lib, o'z g'oyalarini erkin bildirish imkoniga ega bo'ldi. Kuzatuvlar ko'rsatdiki, semestrning uchinchi-to'rtinchi haftasidan boshlab talabalar darsda o'z fikrlarini bildirish va yangi g'oyalar taklif etish faolligini oshirdi - bu holat ayniqsa "uchrashtirish topshiriqlari" (kombinatsiya va o'xshatish topshiriqlari)da yaqqol namoyon bo'ldi.

Psixologik xavfsizlikning yo'qligi, aksincha, kreativ ifodani to'sib qo'yishi kuzatildi. Nazorat guruhida talabalar an'anaviy baholash tizimida davom etganligi sababli asosan "xavfsiz" va ko'pchilik tomonidan qabul qilinadigan javoblar berishga moyil bo'ldi. Bu holat ayniqsa o'ziga xoslik (originality) ko'rsatkichida farqni yaqqol namoyon qildi.

#### **Ichki motivatsiyaning kreativlikka ta'siri**

Eksperimental guruhda real kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va talabalarning o'z qiziqishlari bo'yicha loyiha tanlash imkoniyati ichki motivatsiyani sezilarli darajada kuchaytirdi. Talabalar topshiriqni "bajarishim shart" deb emas, balki "qiziq, qanday hal qilsam bo'ladi?" degan ruhda qabul qilishi semestr davomida kuzatildi.

Amabilening tadqiqotlari bilan mos kelgan holda, ichki motivatsiya kuchaygan sari talabalarning g'oyalari ham ko'paydi (ravonlik oshdi), turli-tuman bo'ldi (egiluvchanlik oshdi) va noodatiy xarakter kasb etdi (o'ziga xoslik oshdi). Bu munosabat ayniqsa semestrning ikkinchi yarmida yaqqol namoyon bo'ldi.

#### **O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi**

O'qituvchilar uchun o'tkazilgan trening natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik o'qituvchilar psixologik xavfsizlik tushunchasini nazariy jihatdan bilsa-da, uni dars jarayonida amalda qo'llash ko'nikmalariga ega emas edi. Trening davomida o'qituvchilar konstruktiv fikr-mulohaza berish, talabalar g'oyasini rad etmasdan yo'naltirish va xatolarni o'quv fursatiga aylantirish ko'nikmalarini o'zlashtirishdi.

Eksperimental guruhdagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi tomonidan ijobiy qabul qilingan g'oyalar talabalarning keyingi mashg'ulotlarga qiziqishini va kreativ faolligini oshirdi. Aksincha, hatto yengil tanqid ham bir qator talabalarning faolligini kamaytirdi - bu Rojersning psixologik xavfsizlik nazariyasini amalda tasdiqlaydigan muhim kuzatuv hisoblanadi.

#### **TTCT natijalari: eksperimental va nazorat guruhlarini taqqoslash**

Semestr boshida o'tkazilgan pretest natijalariga ko'ra, eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki TTCT ko'rsatkichlari bir-biriga juda yaqin bo'lib, guruhlar orasida ahamiyatli farq kuzatilmadi. Bu holat eksperimental ta'sirning samaradorligini xolis baholash imkonini berdi.

Semestr oxirida o'tkazilgan posttest natijalari esa ikki guruh o'rtasida sezilarli farqni ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda eksperimental va nazorat guruhlarining yakuniy TTCT natijalari keltirilgan:

1-jadval: Eksperimental va nazorat guruhlarining TTCT bo'yicha yakuniy natijalari taqqoslamasi

TTCT komponenti (maks. ball)	Eksperimental guruh (n=90)	Nazorat guruh (n=90)	Farq (+ball)	Farq (%)
Ravonlik - (60)	31.8	24.6	+7.2	+29.3%
Egiluvchanlik - (40)	23.1	18.2	+4.9	+26.9%
O'ziga xoslik -(40)	20.7	16.4	+4.3	+26.2%
<b>TTCT Umumiy ball (140)</b>	<b>75.5</b>	<b>53.4</b>	<b>+22.1</b>	<b>+41.4%</b>

Manba: muallif tadqiqotlari, TTCT posttest natijalari, 2024-yil.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruh talabalarining TTCT umumiy bali nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 22.1 ballga yuqori bo'ldi. Bu farq uchala komponent bo'yicha ham bir xil yo'nalishda kuzatildi: ravonlik bo'yicha +7.2 ball (+29.3%), egiluvchanlik bo'yicha +4.9 ball (+26.9%), o'ziga xoslik bo'yicha +4.3 ball (+26.2%). Ayniqsa ravonlik ko'rsatkichidagi farq e'tiborga loyiq - bu talabalarning erkin, bosimdan xoli muhitda ko'proq g'oyalar yaratish imkoniga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

O'ziga xoslik ko'rsatkichidagi farq ham diqqatga sazovor: noodatiy va original g'oyalar yaratish qobiliyati psixologik xavfsizlik muhitida sezilarli darajada rivojlanganligi namoyon bo'ldi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich semestr davomida deyarli o'zgarmadi, bu esa an'anaviy o'qitish muhitining kreativ salohiyatni rivojlantirishga unchalik ta'sir ko'rsatmasligini tasdiqlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, eksperimental guruhda natija barcha uch yo'nalish (psixologiya, pedagogika, tabiiy fanlar) bo'yicha ham yuqori bo'ldi. Bu holat kreativlikni rivojlantirishning psixologik shartlari universal xarakter kasb etishini, ya'ni ularning ta'siri kasbiy yo'nalishdan qat'i nazar namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflar shakllandi.

- Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda kreativlikni rivojlantirish o'z-o'zidan sodir bo'ladigan tasodifiy jarayon emas. U aniq psixologik shartlar - psixologik xavfsizlik muhiti, ichki motivatsiya va o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi - ta'sirida maqsadli ravishda boshqarilishi mumkin.
- E.Torransning Kreativ Fikrlash Testi (TTCT) kasbiy tayyorgarlik sharoitidagi o'zgarishlarni aniq va ishonchli o'lchash imkonini beradi. Ushbu diagnostik vosita oliy ta'lim muassasalarida kreativlikni monitoring qilish uchun keng joriy etilishi tavsiya etiladi.
- Psixologik xavfsizlik muhiti kreativlikni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Talabalar xatolardan qo'rqmay, erkin fikr bildira oladigan muhitda yaratuvchilik qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Posttest natijalari eksperimental guruhning TTCT umumiy bali bo'yicha nazorat guruhidan 22.1 ballga ustun kelganini ko'rsatdi.
- Ichki motivatsiya tashqi rag'batlantirish va majburlashga nisbatan kreativ faoliyatda ancha samarali. Kasbiy qiziqish asosida qurilgan topshiriqlar, tanlash erkinligi va jarayon natijadan muhimroq deb hisoblangan baholash tizimi ichki motivatsiyani kuchaytiradi.
- O'qituvchining kasbiy tutumi kreativlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Konstruktiv muloqot, talabalar g'oyasini qabul qilish va qo'llab-quvvatlash muhiti yaratish - bu shaxsiy fazilat emas, balki o'rgatilishi va rivojlantirilishi mumkin bo'lgan kasbiy ko'nikmadir.
- Eksperimental dasturning barcha uch yo'nalish (psixologiya, pedagogika, tabiiy fanlar) bo'yicha ham samarali bo'lganligi taklif etilayotgan yondashuvning universal xarakter kasb etishini ko'rsatadi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: oliy ta'lim muassasalarida har semestr boshida TTCT diagnostikasini o'tkazish va natijalar asosida individual kreativlik rivojlanish xaritalarini tuzish; "Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish" mavzusida o'qituvchilar uchun semestrlik treninglar o'tkazish; kasbiy dasturlarga haftasiga kamida 2 soatlik kreativlik mashg'ulotlarini (brainstorming, design thinking, SCAMPER metodlari) kiritish;

### Brainstorming (Aqliy hujum)

Bu metodning asosiy maqsadi - qisqa vaqt ichida imkon qadar ko'p miqdorda g'oyalar to'plashdir. Bu yerda sifatdan ko'ra miqdor birinchi olingan o'ringa chiqadi.



**Asosiy qoidasi:** Hech qanday g'oya tanqid qilinmaydi. Hatto eng "tentakrona" ko'ringan fikr ham yangi yo'nalish ochishi mumkin.

**Jarayon:** Ishtirokchilar navbatma-navbat o'z fikrlarini aytishadi, barcha g'oyalar yozib boriladi va faqat yakunda ular saralanadi.

### Design Thinking (Dizayn-fikrlash)

Bu shunchaki "chiroyli narsa chizish" emas, balki insonga yo'naltirilgan muammolarni hal qilish strategiyasidir. U foydalanuvchining ehtiyojlarini tushunishga asoslanadi.

Ushbu metod odatda 5 ta bosqichdan iborat:

1. **Empatiya:** Foydalanuvchini tinglash va uning muammosini his qilish.
2. **Aniqlash:** Muammoni aniq shakllantirish.
3. **G'oya yaratish:** Yechimlar ustida ishlash.
4. **Prototip:** G'oyaning kichik, arzon ko'rinishini yasash.
5. **Testlash:** Foydalanuvchida sinab ko'rib, kamchiliklarni tuzatish.

### SCAMPER Metodi

SCAMPER - bu mavjud mahsulot yoki xizmatni yaxshilash uchun ishlatiladigan nazorat savollari to'plamidir. Har bir harf alohida harakatni anglatadi:

Harf	Ma'nosi (Inglizcha)	O'zbekcha tavsifi
S	<b>Substitute</b>	Nimani almashtirish mumkin? (material, odam, jarayon)
C	<b>Combine</b>	Ikki yoki undan ortiq qismni birlashtirsa nima bo'ladi?
A	<b>Adapt</b>	Boshqa sohadagi yechimni bu yerga moslashtirish mumkinmi?
M	<b>Modify / Magnify</b>	Shaklni o'zgartirish yoki biror qismni kattalashtirish.
P	<b>Put to another use</b>	Boshqa maqsadda ishlatsa bo'ladimi?
E	<b>Eliminate</b>	Ortiqcha qismlarni olib tashlasak-chi?
R	<b>Reverse / Rearrange</b>	Tartibni o'zgartirish yoki teskarisiga qilish.

baholash tizimida jarayonni yakuniy natijaga teng huquqli mezon sifatida ko'rib chiqish.

Kelgusidagi tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhitida kreativlikni rivojlantirish shartlarini, shuningdek, turli yosh guruhlari psixologik xavfsizlik omilining kreativlikka ta'sirini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun: O'RQ-637-son. - Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon. 2023-yil 11-sentabr.
3. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5. - P. 444-454.
4. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Norms-Technical Manual. - Lexington, MA: Personnel Press, 1966.
5. Amabile T.M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. - Boulder, CO: Westview Press, 1996.
6. Amabile T.M. The social psychology of creativity: A componential conceptualization // Journal of Personality and Social Psychology. - 1983. - Vol. 45(2). - P. 357-376.
7. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. - Boston: Houghton Mifflin, 1961.
8. Maslow A.H. Toward a Psychology of Being. 2nd ed. - New York: Van Nostrand Reinhold, 1968.
9. Bogoyavlenskaya D.B. Psixologiya tvorcheskix sposobnostey. - M.: Akademiya, 2002. - 320 b.
10. Drujinin V.N. Psixologiya obshix sposobnostey. 3-e izd. - SPb.: Piter, 2007. - 368 b.
11. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. 2nd ed. - Chichester: Capstone, 2011.
12. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 528 b.
13. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1998. - 240 b.
14. Runco M.A., Jaeger G.J. The standard definition of creativity // Creativity Research Journal. - 2012. - Vol. 24(1). - P. 92-96.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.